

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

JORAI

Journal of


RESEARCH

and

INNOVATIONS

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ

Volume I, Issue 4



IMFAKTOR
PAGES

April | 2023

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-4

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-4

ТОШКЕНТ - 2023

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-4>

Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

Омонов Қ. – филология фанлари доктори, профессор
Муҳибова У. – филология фанлари доктори, профессор
Каримов Б. – филология фанлари доктори, профессор
Рашидов Т. – санъатшунослик фанлари номзоди, доцент
Мухамедова Ф. – санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори
Тешабоев Ж. – санъатшунослик фанлари доктори, профессор
Эгамбердиев И. – техника фанлари доктори, профессор
Ташманов Е. – техника фанлари доктори, профессор
Салихова О. – техника фанлари номзоди, доценти
Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Жумамуратов А. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Камолов Б. – география фанлари доктори, профессор
Миракмалов М. – география фанлари номзоди, доцент
Тожиева З. – география фанлари номзоди, доцент
Юсупова М. – архитектура фанлари доктори, профессор
Аскарлов Ш. – архитектура фанлари доктори, профессор
Назарова Д. – архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

Филология фанлари

MAMATQULOVA Zilola Rejabaliyevna

Farg'ona davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7827786>

KULOLCHILIK TERMINLARINING SINTAKTIK USUL BILAN YASALISHI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kulolchilik jarayonida qo'llanuvchi terminlarning struktur tuzilishi haqida fikr yuritilgan. Sodda, qo'shma va birikmali terminlar tahlilga tortilgan. Sintaktik usul bilan yasalgan terminlarning tarkibiy qismlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Murakkab terminlar. Sodda terminlar. Yasama va tub terminlar. Sistem struktur tuzilish. O'z qatlamiga kiruvchi leksik birliklar. O'zlashgan terminlar. O'zlashgan qatlamga kiruvchi leksik birliklar.

СОЗДАНИЕ ТЕРМИНАЛЬНОЙ ПОТЕРИ СИНТАКТИЧЕСКИМ МЕТОДОМ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается структурная структура терминов, используемых в гончарном процессе. Анализируются простые, составные и составные термины. Изучены компоненты терминов, образованных синтаксическим методом.

Ключевые слова: Сложные термины. Простые термины. Искусственные и радикальные термины. Структура системы. Лексические единицы входят в свой собственный слой. Заимствованные термины. Лексические единицы, принадлежащие приобретенному слою.

CREATING A TERMINAL LOSS BY THE SYNTACTIC METHOD

ANNOTATION

This article discusses the structural structure of the terms used in the pottery process. Simple, compound and compound terms are analyzed. The components of the terms formed by the syntactic method have been studied.

Keywords: Complex terms. Simple terms. Artificial and radical terms. System structure. Lexical units included in their own layer. Borrowed terms. Lexical units belonging to the acquired layer.

Kulolchilik terminologiyasida qo'shma terminlar ham salmoqli o'rin tutadi. Mazkur maydonidagi qo'shma so'z tarkibli terminlarning modeli (A (asos)+A (asos)) bo'ladi. O'zbek tilida bu holatda faqat bir tilga xos o'zaklardan hosil qilingan va turli tillarga xos bo'lgan o'zaklardan tuzilgan terminlarni ko'rishimiz mumkin: Masalan, qo'shma terminlar, Kulolchilik leksikasining katta qismini qo'shma so'zlar tashkil etadi.

Ayniqsa, kulolchilik buyumlarida qo'llanilgan naqshlar, bezaklar, chizmalar nomi qo'shma so'zlardan tashkil topganini ko'rishimiz: *anorgul, bodomgul, qalampirgul, nokgul, pistagul, qovoqgul, karnaygul, qiyoqo't, lolagul, buragul, g'unchagul, gulxayri, gulqo'chqaroq, jiydagul, qo'shxat, uchxat, to'rtxat, jibilajibon, chumchuqqanot, qarg'atirnoq, gilosbarg, pistagul, parparak, charxpalak, tumoryo'l, oqsoqol, ustaboshi, najjorboshi, oqtosh, oqqum, yulduzbosma, tolbarg, ko'hiqof, nokbarg, qovoq barg, otasharava, binafshagul, munchoqgul, pistagul, gajakgul, qushko'zi* kabi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, kasb-hunar leksikasi ustida ilk tadqiqot ishlarini olib borgan olim S. Ibrohimov "Farg'ona shevalari kasb-hunar leksikasi" nomli noyob asarida qo'shma terminlarning izohiga ham to'xtalib o'tgan. Olim shunday yozadi: "... kasb – hunar ahillari amalda narsa va tushuncha nomlarini nomlashda so'zlarni bir-biriga qo'shib, qo'shma termin tuzish eng faoldir." [1, B.82].

Olim o'z tadqiqot ob'ektidagi mavjud 2472 ta terminning qarib 62% ya'ni 1595 tasi qo'shma terminlardan iborat ekanligini ta'kidlagan.

O'zbek tilida qo'shma terminlar quyidagicha morfologik strukturaga ega:

1. OT+OT: karnaygul, qiyoqo't, lolagul, buragul, g'unchagul, munchoqgul, toshtarog, tug'barg, nayzabarg, to'pmunchoq, palakgul.

2. SIFAT+OT: gajakgul, gajakbarg, oq rang, yashil rang, moviy rang, sariq rang, havo rang, oq yo'l.

3. SON+OT: qo'shxat, uchxat, to'rtxat, chorbarg kabi.

Yig'ilgan misollar tahlili asosida o'zbek tilida strukturali OT+OT (N+N) strukturali: ustaboshi, najjorboshi, anorgul, bodomgul, qalampirgul, nokgul, pistagul, qovoqgul, gulqo'chqaroq, jiydagul, chumchuqqanot, qarg'atirnoq, gilosbarg, pistagul, tolbarg, nokbarg, qovoq barg, qalampirgul, pistagul, qovoqgul, anjirgul, choybarg, o'smagul, palakgul kabi terminlar ko'p ekanligini aytish mumkin.

Kulolchilik terminlarining asosiy qismini sintaktik modeli L (leksema)+-L (leksema) bo'ladi. Terminlar sintaktik strukturasi ko'ra "ot+ot" (N+N), "sifat+ot" (Adj+N) tarkibli bo'ladi ba'zan esa, "son +ot" (R+N)

Birikmali terminlar nafaqat kulolchilik terminologiyasida balki O'zbek tili terminologik tizimda ham salmoqli ulushni tashkil etadi. "Ayrim terminologik tizimlarda birikmalar 50-60 foizni, aniq fanlar terminologiyasida esa 70-80 foiz tashkil etmoqda" [2, B.23].

Ilmiy tadqiqotlarimizda shu narsa aniq bo'ldiki, ona tilimizning kulolchilik terminologiyasida ham birikmali terminlar o'ziga hos munosib o'rinni egallaydi. Demak, terminologik maydonning bir qismini birikmali (L+L) terminlar tashkil qiladi. Ularning salmoqli qismi naqsh, bezak turlarini anglatuvchi terminlar sanaladi. Kulolchilik leksikasida birikmali nomlar eng sermahsuldir. Birikma tarkibida kelgan nomlarni turkiy (o'zbekcha) birikmali va forsiy izofali birikmalar sifatida ikkiga ajratish mumkin.

Turkiy (o'zbekcha) birikmalarga quyidagilarni kiritish mumkin: to'rsimon naqsh, rombsimon naqsh, uchburchakli shakl, uchburchak naqsh, doirasimon shakl, doirasimon naqsh, zanjirsimon naqsh, zanjirsimon shakl, nuqtali naqsh, kvadratchali qora naqsh, kvadratchali oq naqsh, egri chiziq, to'g'ri chiziq, doirachali naqsh, tupbarggul shaklli naqsh, anor guli, bodom guli, sodda gul, baliq dumi, tovus qanoti, o'rdak qanoti, kaptar dumi, kapalak qanoti, chumchuq dumi, xo'roz dumi, burgut dumi, boyqush qanoti, oltin qo'ng'iz, halqa zanjira, tumorcha barg, tumor zanjira, zanjira islami olxo'ri, islami pechakgul, islami baizai anqo, du gajagi marg'ula, bargi kobuzbon, bargi zanjabil, bargi nayza, bargi shijora, bargi madohil, bargi mushki anbar, bargi gajak, rishtai pisorig'.

Bundan tashqari, behi sarun, naqshi xashhosh, behi daraxti poyox, guli bodomi ninachi, islimi qalampir, guli tarbuz, guli nok, islimi ansur, guli norinj, guli chong'ora, guli zarvaraq, guli odmi, guli o'sma, guli ansur, naqshi obi, islimi zuluk, chor chashm, qo'sh bargi bodomi shijor, dumi baliq, qanoti tovus, qanoti o'rdak, dumi kabutar, qanoti kapalak, shamdoni xashtagi, girdobi parra, davrai xurshid, hashti havzagi, tuyog'i gusfand, mori siyoh, xatti islimi, shoxi gov, naqshi kojokord, chashmi gov, qanoti qushi movi, arvoxi pir, kamar basta va boshqalar.

Sintaktik usul bilan so'z yasalishi kulolchilik leksikasida eng sermahsul usul ekanligi kuzatiladi. Soha leksikasi tarkibiga kiruvchi qo'shma so'zlarning yasalish qoliplarini va yasovchi birliklar orasidagi munosabatni quyidagicha belgilash mumkin:

1. Sifatlovchi–sifatlanmish sintagmasini eslatadigan qo'shma so'zlar. Kulolchilik terminologiyasida sifat+ot (sifatlovchi–sifatlanmish) tipida hosil qilingan birikma terminlarning bu qolip asosida yuzaga kelishi ularning aslida sifatlovchi-sifatlanmish munosabatini bildiruvchi so'z birikmalaridan o'sib chiqqanligini ko'rsatadi. Kulolchilik leksikasida bu qolip asosida yasalgan nomlar bir talay: karnaygul, qiyoqo't, lolagul, buragul, g'unchagul, qo'shxat, uchxat, to'rtxat, munchoqgul, gajakgul, toshtarok, gajakbarg, tug'barg, nayzabarg, chorbarg, to'pmunchoq, palakgul, oqsoqol, oqtosh, oq rang, yashil rang, moviy rang, sariq rang, havo rang, oq yo'l kabi.

2. Qaratqich-qaralmish sintagmasini eslatadigan qo'shma so'zlar. Bu tipda yasalgan so'zlar bir nechta bo'lib, ularning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Qaratqich-qaralmish munosabatidagi so'z birikmalari qo'shma so'zga aylangach, birinchi komponent tarkibidagi qaratqich ko'rsatkichi, ikkinchi komponentdagi egalik (3-shaxs) ko'rsatkichi qisqaradi: najjorboshi, ustaboshi, anorgul, bodomgul, qalampirgul, nokgul, pistagul, qovoqgul, gulqo'chqaroq, jiydagul, chumchuqqanot, qarg'atirnoq, gilobarg, pistagul, tolbarg, nokbarg, qovoq'qarg, qalampirgul, pistagul, qovoqgul, anjirgul, choybarg, o'smagul, kaptardumi, palakgul, qushko'zi kabi.

Qo'shma so'zlardan tashqari birikmali terminlar ham kulolchilik terminologiyasini bir qismini tashkil etadi. Birikmali terminlar: Kulolchilik leksikasida birikmali nomlar eng sermahsuldir. Birikma tarkibida kelgan nomlarni turkiy (o'zbekcha) birikmali va forsiy izofali birikmalar sifatida ikkiga ajratish mumkin.

Turkiy (o'zbekcha) birikmalarga quyidagilarni kiritish mumkin: to'rsimon naqsh, rombsimon naqsh, uchburchakli shakl, uchburchak naqsh, doirasimon shakl, doirasimon naqsh, zanjirsimon naqsh, zanjirsimon shakl, nuqtali naqsh, kvadratchali qora naqsh, kvadratchali oq naqsh, egri chiziq, to'g'ri chiziq, doirachali naqsh, tupbarggul shaklli naqsh, anor guli, bodom guli, sodda gul, baliq dumi, tovus qanoti, o'rdak qanoti, kaptar dumi, kapalak qanoti, chumchuq dumi, xo'roz dumi, burgut dumi, boyqush qanoti, oltin qo'ng'iz, halqa zanjira, tumorcha barg, tumor zanjira, g'isht zanjira, suv ichirish, uy bezatish, qurbonlik o'tkazish, xudoyi qilish, is chiqarish, katta mola, kichkina mola, naqshin qolip, lagan qolip, oqsoqollar kengashi, loy tayyorlamoq, nam sholcha bilan o'ramoq, xumdonga solmoq, olovda pishirmoq, ishlov bermoq, gul solmoq, shakl bermoq, kichik g'ildirak, katta g'ildirak, yog'och o'q va ayoq, kub, oshich boshqalar.

Forsiy izofali birikmalarga esa quyidagilarni ko'rsatish mumkin: bargi gulnor, guli behi, bargi tug', guli madoxil, guli olubolu, guli binafsha, bargi mustai, guli talxa, guli angor, daraxti xurmo, guli anor, guli binafsha, guli tupsar, guli bodomi ninachi, islimi qalampir, guli tarbuz, guli nok, islimi ansur, guli norinj, guli chong'ora, guli zarvaraq, guli odmi, guli o'sma, islimi zuluk, chor chashm, dumi baliq, qanoti tovus, qanoti o'rdak, dumi kabutar, qanoti kapalak, dumi murg', dumi xo'roz, dumi burgut, qanoti boyqush, chashmi bulbul, bandi rumi,

Demak, terminologik maydon komponentlari stuktur-morfologik va struktur-sintaktik jihatdan sodda tub (A (asos)) terminlar, sodda yasama (A (asos)+aff.) terminlar, qo'shma (A (asos)+A (asos)) terminlar hamda birikmali (L+L) terminlardan iborat bo'ladi. Ular turli tillardan qabul qilingan bo'lib, ayniqsa, arab va fors-tojik tillaridan kirgan terminlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Kulolchilik ternimosistemasidagi ayrim yo‘qolib borayotgan so‘zlarni to‘plash va ular ustida jiddiy izlanishlar olib borish tilshunoslik fani oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Jumladan, Chegachi- singan sopol, chinni idishlarni chegalovchi, chega qiluvchi, yamovchi usta [3, B.42].

Chegachi so‘zi iste‘moldan chiqqan termin sanalib, bu taraqqiyot jadal suratlar bilan rivojlanayotganligi tufayli bu kasb egalariga ijtimoiy hayotda ehtiyoq qolmagan. Shuning uchun ham bu termin ularning aylanmoqda [4, B.17].

Yoki ayoq, kub, oshich arxaizm sanaluvchi so‘zlar, ko‘zas, ko‘rka/ko‘rga , olma/alma/ ulma singari terminlar asrlar davomida o‘zbek leksikografiyasini boyitishda muhim ahamiyat kasb etgan [5, B.39].

IQTIBOSLAR

1. S.Ibrohimov Fargʻona shevalarining kasb-hunar leksikasi. II-III. - Toshkent: Fan, 1959
2. Pardayev I.Oʻzbek tilining zargarlik terminologiyasi:Filol.fan.nomz...diss. – Toshkent, 1994.
3. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 5 jildlik. 4-jild. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
4. Qissasi Rabgʻuziy. Ikki jildli. 1-2-jildlar. –T.: Yozuvchi
5. Koshgʻariy M. Devonu lugʻatit turk. Uch tomli.1-3 tomlar. –T.: Fan, 1960-1963.

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-4

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-4

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz